

HUDUDLAR IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Madraximov Umirbek Muxammadovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada hududlar iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning nazariy-metodologik asoslari chuqur ilmiy tahlil qilingan. Tadqiqot doirasida hududiy iqtisodiy xavfsizlik tushunchasining mohiyati, uning mazmuni, shakllanishi va rivojlanishiga oid zamonaviy ilmiy qarashlar tizimli ravishda o'rganilgan. Hududlar iqtisodiy xavfsizligini baholashning xalqaro amaliyoti va ilg'or xorijiy tajribalar qiyosiy tahlil qilinib, O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlari asoslab berilgan. Shuningdek, hududiy iqtisodiy xavfsizlik darajasini aniqlovchi asosiy indikatorlar tizimi hamda ushbu indikatorlarni aniqlash bo'yicha taklif etilayotgan metodologik yondashuvlar batafsil bayon etilgan. Tadqiqot natijasida hududlar iqtisodiy xavfsizligini samarali boshqarish uchun zarur bo'lgan mexanizmlarni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy asoslangan nazariy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Muallif tomonidan hududlarning barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash va iqtisodiy xavfsizlik tahdidlarini bartaraf etish yuzasidan zarur chora-tadbirlar tavsiya etilgan.

Kalit so'zlar: hududlar iqtisodiy xavfsizligi, iqtisodiy xavfsizlik nazariyasi, xavfsizlik indikatorlari, baholash metodologiyasi, xavfsizlik mexanizmlari, hududiy iqtisodiy siyosat.

KIRISH

Hozirgi globallashuv jarayonlari sharoitida hududlar iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash mamlakatlar barqaror rivojlanishining muhim sharti sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, iqtisodiy tahdidlarning ko'payishi, xalqaro bozorlardagi noaniqliklar, iqtisodiy sanksiyalar va inqirozli holatlarning kengayishi sharoitida mazkur masala yanada dolzarblik kasb etmoqda. Hududlar iqtisodiy xavfsizligi deganda, iqtisodiyotning tashqi va ichki tahdidlarga qarshi tura olish qobiliyati hamda barqaror rivojlanishni ta'minlash imkoniyatlari tushuniladi [1].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni hamda 2023-yil 20-iyuldagagi PQ-241-sonli "Hududlarni kompleks rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori hududlarning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash borasida tizimli yondashuvlarni taklif etmoqda. Ushbu qaror va farmonlarda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash uchun zarur bo'lgan institutsional mexanizmlarni yaratish, hududlarni muvozanatli rivojlantirish, iqtisodiy barqarorlikni oshirish yo'nalishlaridagi asosiy vazifalar belgilab berilgan [2,3].

Bugungi kunda ayniqsa Namangan viloyati misolida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash masalasi dolzarb hisoblanadi. Viloyat iqtisodiyotining tuzilmasidagi mavjud nomutanosibliklar, aholining bandligi, investitsiyalar jalb qilish va infratuzilmani rivojlantirish borasidagi muammolar iqtisodiy xavfsizlik darajasini pasaytiruvchi asosiy omillardan sanaladi [4]. Shu nuqtai nazardan, hududlar iqtisodiy xavfsizligini baholashda iqtisodiy-matematik va ekonometrik usullarni keng qo'llash, ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Iqtisodiy xavfsizlik masalalariga bag'ishlangan ko'plab xalqaro tadqiqotlarda iqtisodiy tahdidlarni baholashning zamonaviy metodologik asoslari ishlab chiqilgan bo'lib, ular orqali davlatlar va hududlarning iqtisodiy xavfsizligini samarali boshqarish

imkoniyatlari tahlil qilingan [5]. Xususan, xalqaro tashkilotlarning tavsiyalarida iqtisodiy xavfsizlik indikatorlarini ishlab chiqish va ulardan amaliyotda foydalanish mexanizmlariga alohida e'tibor qaratilgan [6].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Hududlar iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash mavzusi iqtisodiy tadqiqotlarda keng yoritilgan va ko'plab nazariy hamda amaliy tadqiqotlarda aks etgan. Mazkur yo'nalishdagi dastlabki ilmiy qarashlardan biri Myrdalning tadqiqotlarida bayon etilgan bo'lib, unda hududiy rivojlanishdagi nomutanosibliklar va iqtisodiy tahdidlar nazariy jihatdan o'r ganilgan [7]. Krugman esa geografik omillar va iqtisodiy rivojlanishdagi nomutanosibliklarning iqtisodiy xavfsizlikka ta'sirini batafsil tahlil qilib, bu borada geografik iqtisodiyot nazariyasini ishlab chiqqan [8].

Henderson va uning hamkorlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda hududiy iqtisodiy siyosat samaradorligi va uning iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashdagi o'rni keng ko'lamda tahlil qilingan [9]. Tadqiqot natijalarini ko'rsatadiki, hududlarda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash uchun mahalliy boshqaruv organlarining faol ishtiroki zarur hisoblanadi.

Ravallion (2001) tomonidan olib borilgan tadqiqot esa kambag'allik va iqtisodiy xavfsizlik o'rta sidagi bog'liqlikni o'r ganib chiqib, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda hududiy rivojlanish strategiyalarining samaradorligini oshirish zarurligini asoslab bergen [10]. Bundan tashqari, xalqaro iqtisodiy tashkilotlar, xususan Jahon banki va BMT Taraqqiyot dasturi (UNDP), hududlar iqtisodiy xavfsizligini baholash uchun indikatorlar tizimini shakllantirib, bu indikatorlardan amaliyotda foydalanish metodologiyasini ishlab chiqqan [5,6].

O'zbekistonlik tadqiqotchilar, jumladan, Ibragimov va Jo'rayev tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda mamlakatdagi hududlar iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning mahalliy sharoitlarga mos mexanizmlari va indikatorlari ishlab chiqilgan [1]. Bunday tadqiqotlar O'zbekiston sharoitida iqtisodiy xavfsizlikka tahidlarni bartaraf etish bo'yicha aniq tavsiyalar bilan boyitilgan.

Shunday qilib, hududlar iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning nazariy va metodologik jihatlarini chuqr o'r ganish, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish va bu boradagi davlat siyosatini samarali amalga oshirishga oid ilmiy asoslangan yondashuvlarni ishlab chiqish ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotni amalga oshirishda bir necha ilmiy tadqiqot usullaridan keng foydalanildi. Tadqiqotning asosiy metodologik asosini tizimli yondashuv tashkil etdi. Bu yondashuv kichik biznes sub'yektlari faoliyatining barcha jihatlarini yaxlit holda tahlil qilishga imkon berdi. Bundan tashqari, tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy-uslubiy yondashuvlar qo'llanildi: tizimli yondashuv, SWOT-tahlil, qiyosiy-statistik va ekspert baholash metodlari. Tadqiqotda Namangan viloyati statistika boshqarmasi va kichik biznes sub'yektlarining moliyaviy va iqtisodiy ko'rsatkichlari hamda ekspert so'rovlari natijalari keng qo'llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hududlar iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash jarayonida bir qancha iqtisodiy va ijtimoiy ko'rsatkichlarning tahlili muhim ahamiyatga ega. Iqtisodiy xavfsizlik holati hududning barqaror rivojlanishini belgilovchi asosiy omillardan biri bo'lib, uning samarali ta'minlanishi aholining turmush farovonligini yaxshilash, iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va hududlarning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqotda Namangan viloyati misolida iqtisodiy xavfsizlik holatini kompleks tarzda baholash uchun bir qator asosiy indikatorlar tanlab olindi. Ushbu indikatorlar hudud iqtisodiyotining asosiy jihatlarini har tomonlama qamrab olishga imkon beradi. Jumladan, yalpi hududiy mahsulot hajmi orqali iqtisodiy o'sish sur'atlari va ishlab chiqarish ko'lami baholandи. Aholi bandligi va ishsizlik darajasi orqali esa mehnat bozoridagi vaziyat, aholi farovonligi va ijtimoiy barqarorlik tahlil qilindi.

Investitsiyalar hajmi indikatorining tanlanishi iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda kapital oqimining ahamiyati va uning hududlarning barqaror rivojlanishidagi o'rmini baholash imkoniyatini berdi. Shu bilan birga, infratuzilmaning rivojlanish darajasi iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda asosiy tayanch sifatida ko'rib chiqildi. Ushbu indikator orqali transport, energetika, kommunal xizmatlar va boshqa infratuzilma ob'ektlarining samarali ishslash darajasi hamda mavjud muammolar chuqur tahlil qilindi.

Mazkur indikatorlar asosida olingan natijalar hududlar iqtisodiy xavfsizligini mustahkamlash bo'yicha amaliy tavsiya va strategiyalarni ishlab chiqishga yordam beradi va kelgusida barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

1-jadval

Namangan viloyatining yalpi hududiy mahsuloti dinamikasi⁶³ (mlrd. so'm)

Yillar	Yalpi hududiy mahsulot	O'sish sur'ati (%)
2021	30 700	-
2022	33 100	7,8
2023	35 800	8,2
2024	38 500	7,5

Manba: Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Namangan viloyatining yalpi hududiy mahsuloti 2021-2024-yillar davomida barqaror o'sib bordi. Ushbu davr mobaynida iqtisodiyotning turli tarmoqlarida kuzatilgan o'sish viloyat iqtisodiyotining umumiyo ko'lagini kengaytirdi. Ayniqsa, sanoat ishlab chiqarishining hajmi oshgani, kichik va o'rta biznes subyektlarining faollashuvi, xizmatlar sohasida yangi korxonalarining tashkil etilishi, qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportining sezilarli darajada ortishi yalpi hududiy mahsulot ko'rsatkichlarini yuqoriga ko'tarishda asosiy omillar bo'lib xizmat qildi.

Shu bilan birga, viloyatda eksport salohiyati ham yaxshilandi, ayniqsa qishloq xo'jaligi mahsulotlari va to'qimachilik sanoati mahsulotlarining eksport hajmlari ortdi.

⁶³ Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari, 2024 yil; Namangan viloyati infratuzilma va kommunal xo'jalik boshqarmasi ma'lumotlari, 2024 yil; Namangan viloyati investitsiyalar va tashqi savdo boshqarmasi hisobotlari, 2024 yil; Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari, 2024 yil.

Ushbu jarayon viloyatning xalqaro bozordagi raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qildi.

Ammo, mazkur ijobiy tendensiyalar bilan bir qatorda hududlararo rivojlanishdagi nomutanosibliklar hali ham dolzarbligicha qolmoqda. Viloyatning markaziy shaharlari va ularga yaqin hududlarda iqtisodiy o'sish sur'atlari yuqoriligi kuzatilayotgan bo'lsa, chekka va uzoq tumanlarda iqtisodiy rivojlanish sur'atlari nisbatan pastligicha qolmoqda. Ushbu nomutanosibliklarni kamaytirish va iqtisodiy rivojlanishni tenglashtirish uchun hududlarga yo'naltirilayotgan investitsiyalarni diversifikatsiya qilish, infratuzilmani rivojlantirish va yangi ish o'rinalarini yaratishga qaratilgan chora-tadbirlarni yana-da kuchaytirish zarur. Buning natijasida viloyatning barcha hududlari bir tekis va barqaror rivojlanishiga erishish imkoniyati yaratiladi.

2-jadval

Namangan viloyatida aholi bandligi va ishsizlik darajasi dinamikasi⁶⁴ (2021–2024, %)

Yillar	Bandlik darajasi	Ihsizlik darajasi	Mehnat resurslari soni (ming kishi)
2021	91,5	8,5	1 480
2022	91,8	8,2	1 510
2023	92,2	7,8	1 540
2024	92,5	7,4	1 575

Manba: Namangan viloyati mehnat bosh boshqarmasi hisobotlari asosida tuzilgan.

Bandlik ko'rsatkichlari yaxshilangan bo'lsa-da, aholi sonining tez sur'atlarda o'sishi mehnat bozorida ish o'rinaliga bo'lgan talabning yuqori darajada qolayotganligini ko'rsatmoqda. Ayniqsa, yoshlar va ayollar orasida bandlik muammozi dolzarbligini saqlab turibdi. Ushbu holat, o'z navbatida, aholi daromadlarining o'sishi va umumiyl farovonlik darajasiga ham bevosita ta'sir ko'rsatmoqda.

Shu munosabat bilan yangi korxonalarni tashkil etishni rag'batlantirish, kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash bo'yicha maxsus dasturlarni joriy qilish zarur. Tadbirkorlikni rivojlantirish, ayniqsa, qishloq joylarda va uzoq hududlarda ish o'rinalini yaratish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bilan birga, mavjud ishchi kuchi malakasini oshirish, zamонавиъи kasb-hunarlargaga o'qitish va qayta tayyorlash tizimini yanada samarali tashkil etish orqali aholi bandligini oshirish mumkin. Ushbu tadbirlarni amalga oshirish orqali, bir tomondan, aholi bandligi oshadi, ikkinchi tomondan esa, viloyat iqtisodiyotining raqobatbardoshligi va iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash uchun zarur inson kapitali shakllantiriladi.

⁶⁴ Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari, 2024 yil.; Namangan viloyati infratuzilma va kommunal xo'jalik boshqarmasi ma'lumotlari, 2024 yil.; Namangan viloyati investitsiyalar va tashqi savdo boshqarmasi hisobotlari, 2024 yil.; Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari, 2024 yil.; Namangan viloyati mehnat bosh boshqarmasi hisobotlari, 2024 yil.

3-jadval

**Namangan viloyatiga jalb qilingan investitsiyalar hajmi dinamikasi⁶⁵
(2021-2023, mlrd. so‘m)**

Yillar	Investitsiyalar hajmi	O‘sish sur’ati (%)
2021	2 850	-
2022	3 200	12,3
2023	3 700	15,6
2024	4 250	14,9

Manba: Namangan viloyati investitsiyalar va tashqi savdo boshqarmasi hisobotlari asosida tuzilgan.

Investitsiyalar hajmi ko‘payishi bilan birga, ularning asosan yirik shaharlarga yo‘naltirilishi hududiy rivojlanishdagi tafovutlarni yanada kuchaytirmoqda. Bu esa hududlarning iqtisodiy imkoniyatlardan teng foydalanimasligiga olib kelmoqda. Natijada, uzoq va qishloq hududlarida investitsiyalar yetishmovchiligi sababli iqtisodiy rivojlanish, infratuzilma ta’minoti va aholi farovonligi jihatidan sezilarli farqlar yuzaga kelmoqda.

Mazkur holatni bartaraf etish uchun investitsiyalar oqimini barcha tumanlarga teng taqsimlash mexanizmlarini takomillashtirish zarur. Ayniqsa, davlat-xususiy sheriklik asosidagi loyihalarni viloyatning chekka va qishloq joylarida amalga oshirishga alohida e’tibor qaratish kerak. Bu yo‘nalishda maxsus iqtisodiy zonalar, agrokasterlar va sanoat parklarini tashkil etish orqali investitsion muhitni yaxshilash mumkin.

Shuningdek, Namangan viloyati iqtisodiy xavfsizligini ta’minalash uchun hududlarni kompleks rivojlantirish, iqtisodiyotning turli sohalariga diversifikatsiyalashgan investitsiyalarni jalb qilish, infratuzilmani modernizatsiya qilish va ayniqsa, bandlik muammolarini hal qilishga qaratilgan chora-tadbirlarni yanada kuchaytirish talab etiladi. Ushbu kompleks yondashuv orqali iqtisodiy imkoniyatlardan to‘liq va samarali foydalaniib, hududlarning umumiy barqaror rivojlanishini ta’minalashga erishish mumkin bo‘ladi.

4-jadval

Namangan viloyati infratuzilma rivojlanish ko‘rsatkichlari⁶⁶

Yillar	Yo‘llarning ta’miri (km)	Ichimlik suvi bilan ta’minlanganlik (%)	Elektr energiyasi uzilishlari (soat/yil)	Gaz bilan ta’minlanganlik (%)
2021	150	87	45	76
2022	180	89	40	78
2023	210	91	35	80
2024	240	93	30	83

Manba: Namangan viloyati infratuzilma va kommunal xo‘jalik boshqarmasi

⁶⁵ Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari, 2024 yil.; Namangan viloyati infratuzilma va kommunal xo‘jalik boshqarmasi ma’lumotlari, 2024 yil.; Namangan viloyati investitsiyalar va tashqi savdo boshqarmasi hisobotlari, 2024 yil.; Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari, 2024 yil.; Namangan viloyati mehnat bosh boshqarmasi hisobotlari, 2024 yil.; Namangan viloyati investitsiyalar va tashqi savdo boshqarmasi hisobotlari, 2024 yil.

⁶⁶ Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari, 2024 yil.; Namangan viloyati infratuzilma va kommunal xo‘jalik boshqarmasi ma’lumotlari, 2024 yil.; Namangan viloyati investitsiyalar va tashqi savdo boshqarmasi hisobotlari, 2024 yil.

Infratuzilma rivojlanishi ko'rsatkichlari barqaror yaxshilangan bo'lib, ayniqsa, aholini ichimlik suvi va tabiiy gaz bilan ta'minlash darajasining ortganligi ijobiy holat hisoblanadi. Bu esa, o'z navbatida, aholi turmush darajasining yaxshilanishiga, mahalliy biznes subyektlari faoliyatining rivojlanishiga va hududning umumiy investitsion jozibadorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Biroq, mavjud infratuzilmaning yanada samarali ishlashini ta'minlash uchun elektr energiyasi ta'minotidagi uzilishlarni bartaraf qilish va energiya tizimini modernizatsiya qilish zarurati mavjud. Elektr energiyasiga bo'lgan talabning oshishi sababli yangi quvvatlarni ishga tushirish, mavjud tarmoqlarni modernizatsiya qilish hamda qayta tiklanadigan energiya manbalarini kengroq jalg etish orqali barqarorlikni ta'minlash muhim vazifadir.

Shuningdek, transport infratuzilmasini rivojlantirish va mavjud yo'l tarmoqlarini ta'mirlash, yangi transport aloqalarini yaratish hamda hududlarning transport-logistik imkoniyatlarini oshirish orqali iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlash mumkin. Ayniqsa, uzoq va chekka hududlar bilan aloqalarni yaxshilash, ularning iqtisodiy jarayonlarda faol ishtirokini ta'minlaydi va mintaqaviy iqtisodiy o'sish imkoniyatlarini yanada kengaytiradi. Ushbu chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali viloyatning iqtisodiy xavfsizligini yanada mustahkamlanishi ta'minlanadi.

5-jadval

Namangan viloyatidagi tumanlar kesimida iqtisodiy xavfsizlik indeksining dinamikasi⁶⁷ (2021-2024)

Tumanlar	2021	2022	2023	2024
Namangan sh.	0,77	0,79	0,81	0,83
Chust	0,70	0,72	0,74	0,76
Mingbuloq	0,67	0,68	0,70	0,72
Uychi	0,69	0,71	0,73	0,75
Kosonsoy	0,68	0,70	0,72	0,74

Manba: Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari, 2024 yil.

Tumanlararo iqtisodiy xavfsizlik indekslaridagi farqlar kamaygan bo'lsa-da, hali ham rivojlanish sur'atlari notekisligicha qolmoqda. Ushbu notekisliklar, asosan, ayrim hududlarda yetarli miqdorda investitsiya jalg qilinmaganligi, infratuzilma rivojlanishidagi sezilarli tafovutlar hamda bandlik darajasidagi mavjud farqlar bilan bog'liqdir. Bunday nomutanosib rivojlanish esa hududlarning iqtisodiy xavfsizligiga tahdid solishi va uzoq muddatda hududlarning umumiy iqtisodiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli, har bir tumanning iqtisodiy salohiyati, imkoniyatlari va mavjud muammolarini atroflicha tahlil qilib, hududlarning rivojlanishi uchun alohida strategiyalar ishlab chiqish talab etiladi. Hududiy boshqaruv organlari tomonidan investitsiya loyihalarini muvozanatli taqsimlash, infratuzilmani

⁶⁷ Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari, 2024 yil.; Namangan viloyati infratuzilma va kommunal xo'jalik boshqarmasi ma'lumotlari, 2024 yil.; Namangan viloyati investitsiyalar va tashqi savdo boshqarmasi hisobotlari, 2024 yil.; Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari, 2024 yil.; Namangan viloyati mehnat bosh boshqarmasi hisobotlari, 2024 yil.; Namangan viloyati investitsiyalar va tashqi savdo boshqarmasi hisobotlari, 2024 yil.; Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari, 2024 yil.

rivojlantirish va aholi bandligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarni kompleks ravishda amalga oshirish iqtisodiy xavfsizlikni yanada kuchaytiradi. Bu esa, o'z navbatida, viloyat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlash bilan birga, aholi farovonligini yaxshilashga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Namangan viloyati iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash borasida o'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, viloyat iqtisodiyoti barqaror o'sish sur'atlariga ega bo'lsa-da, hududlararo nomutanosibliklar hanuz mavjud. Yalpi hududiy mahsulot, bandlik darajasi va investitsiya hajmi kabi muhim ko'rsatkichlarda ijobjiy tendensiyalar kuzatilmoqda. Ammo bu rivojlanish, asosan, viloyat markaziga yaqin hududlarda ro'y bermoqda, bu esa iqtisodiy xavfsizlikni to'laqonli ta'minlashda qiyinchilik tug'diradi. Infratuzilma sohasidagi ko'rsatkichlar ham yaxshilangan bo'lsa-da, elektr energiyasi va transport infratuzilmasida qo'shimcha rivojlanishga ehtiyoj mavjud. Tumanlar kesimida iqtisodiy xavfsizlik indekslari farqlari kamayib boryapti, ammo hali ham rivojlanish notekisdir. Shuningdek, mavjud investitsiyalarni diversifikatsiya qilish zarurati sezilmoqda. Bandlikni oshirish, ayniqsa yoshlar va ayollar bandligini ta'minlash uchun qo'shimcha chora-tadbirlar amalga oshirilishi zarur. Viloyatning uzoq tumanlarida infratuzilmaning sust rivojlanishi iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda eng katta to'siqlardan biri bo'lib qolmoqda.

Hududlararo iqtisodiy rivojlanishdagi nomutanosibliklarni kamaytirish uchun davlat va xususiy sektor hamkorligini kengaytirish hamda investitsiyalarni teng taqsimlash mexanizmlarini joriy qilish zarur.

Bandlikni yanada oshirish uchun kichik va o'rta biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlash dasturlarini kuchaytirish va yangi ish o'rinalarini yaratishni rag'batlantiruvchi soliq imtiyozlari tizimini takomillashtirish kerak.

Hududlar iqtisodiy xavfsizligi indekslarini muntazam monitoring qilish va natijalar asosida hududlarni rivojlantirish bo'yicha aniq strategiyalar ishlab chiqish tavsiya etiladi.

Infratuzilma sohasidagi muammolarni hal qilish uchun davlat investitsiyalarini oshirish va xususiy sheriklik asosidagi loyihalarni kengaytirish zarur.

Elektr ta'minoti tizimini modernizatsiya qilish va uzilishlarni kamaytirish orqali viloyat iqtisodiyotining barqarorligini oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Investitsiya jalb qilish uchun xorijiy va mahalliy investorlarni rag'batlantiruvchi qulay shart-sharoitlar yaratish lozim.

Hududiy ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishga yo'naltirilgan maxsus dasturlar ishlab chiqish, ayniqsa uzoq va chekka tumanlarga alohida e'tibor qaratish kerak.

Yuqorida ko'rsatilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish Namangan viloyatining iqtisodiy xavfsizligini mustahkamlash, iqtisodiy rivojlanishdagi hududiy tafovutlarni kamaytirish va umuman olganda, barqaror rivojlanishni ta'minlash imkoniyatlarini yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ibragimov A., Jo'rayev T. Hududlar iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash masalalari. T.: Iqtisod-Moliya, 2021.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-sonli Farmoni, 28-yanvar, 2022.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-241-sonli Qarori, 20-iyul, 2023. [
4. Namangan viloyati hokimligi statistik hisobotlari, 2023.
5. World Bank Report, Economic Security Assessment Indicators, 2022.
6. UNDP Guidelines on Regional Economic Security, 2021.
7. Myrdal G. Economic Theory and Underdeveloped Regions. London, 1957.
8. Krugman P. Geography and Trade. Cambridge, MA: MIT Press, 1991.
9. Henderson J.V., Thisse J.F. Handbook of Regional and Urban Economics. Elsevier, 2004.
10. Ravallion M. Growth, Inequality and Poverty: Looking Beyond Averages. World Development, 2001.
11. Myrdal G. Economic Theory and Underdeveloped Regions. – London: Gerald Duckworth, 1957. – 168 p.
12. Krugman P. Geography and Trade. – Cambridge, MA: MIT Press, 1991. – 156 p.
13. Henderson J.V., Thisse J.F. Handbook of Regional and Urban Economics. – Elsevier, 2004. – 256 p.
14. Ravallion M. Growth, Inequality and Poverty: Looking Beyond Averages. World Development, 2001, Vol. 29, No. 11, pp. 1803–1815.
15. World Bank. Economic Security Assessment Indicators Report, 2022. – Washington D.C.: World Bank Publications, 2022. – 134 p.
16. UNDP Guidelines on Regional Economic Security, 2021. – New York: United Nations Development Programme, 2021. – 98 p.